

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O'YIN FAOLIYATI BOLA TARBIYASINING KAMOLOTI SIFATIDA

Usarova Muborak Xabibulla qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrası o'qituvchisi

usarovamuborak5@gmail.com

+99894-770-79-20

Narxolova Farangiz Umidjon qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Abstract

The influence of play activities on the development of a child's personality and speech. The role and essence of play in the development of children of kindergarten age, games related to age groups. The importance of speech during play activities is discussed.

Абстрактный

Влияние игровой деятельности на развитие личности и речи ребенка. Роль и сущность деятельности в развитии детей в детском саду, игры, соответствующие возрастным группам. Во время игры обсуждается важность речи.

Annotatsiya

O'yin faoliyati bola shaxsining, nutqining rivojlanishiga ta'siri. Faoliyatning bog'cha yoshidagi bolalar taraqqiyotidagi o'rni va uning mohiyati, yosh davrlariga mansub o'yinlar. O'yin faoliyati davomida nutqning ayamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: egotsentirizm, faoliyat, o'yin, rivojlanish, taraqqiyot

O'yin faoliyati: Ushbu faoliyat bola nutqini, shaxsini, o'zligini va harakat faoliyani rivojlantiruvchi faoliyat hisoblanadi. O'yin faoliyatining maqsadi: bola taraqqiyoti harakatlarini o'stirish, xissiy munosabatlarini rivojlantirish.

O'yin bolalar uchun haqiqiy hayotdir. Agar tarbiya bolalar o'ynini oqilona tashkil eta olsagina ijobiy natijalarga erishishi mumkin. A.P.Usova shunday degan ediki: "Bolalar hayoti va faoliyati to'g'ri tarbiyalash demakdir". Bolalarni tarbiyalashning o'yin faoliyati shakli har xil bo'lganligi tufayli samarali natija beradi. O'yinda bola yashashni o'rganmaydi, balki o'z hayoti bilan o'yinda yashaydi.

Bolalarda o'yin faoliyatini to'g'ri tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. O'yin bilan ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik shuki bola ulg'aygan sari o'zgarib boradi. Kichik guruhda o'yin ta'lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhga borganda faoliyat jarayonida ta'limning ro'li ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda bolalarning o'zlarida maktabdagi o'qishga ishtiyoq uyg'onib boradi. Ammo bolalar uchun o'yinning qadri yo'qolmaydi, balki mazmuni o'zgaradi. Endi bolalarni ko'proq fikriy faoliyatini talab etuvchi o'yinlar, sport tarzidagi o'yinlar qiziqтира boshlaydi.

O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalar mehnat faoliyatiga bo'lgan taqlid, turli narsa va hodisalarni tassavvur qilish, xom-xayol surish dam olish va xushchaqchaqlik jarayonining barchasi o'yin faoliyatida jam bo'ladi. Faoliyat davomidagi o'zaro suxbat bolalarni ijtimoiy muhitga o'rganishni taqqazo etadi va bolalar o'zlari sezmaganda holda asta-sekin bilan jamoada ishlashni o'rganadilar.

O'yin faoliyati tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni bilish vositasi emas, balki, qudratli tarbiya vositasi hisoblanadi. Bolalarning rivojlanish taraqqiyotini o'rganar ekanmiz ularning yosh davridagi asosiy yetakchi faoliyat tiplarini bilib olishimiz karak. Yosh davrlarining boshlanishi hisoblangan go'daklik davrida "Kam harakat va nutqsiz davr" yetakchi faoliyat tipi hukmronlik qiladi. Darhaqiqat, go'daklik davrining o'ziga nazar soladigan bo'lsak bola organizmi va miya faoliyati yaxshi taraqqiy etmagan va ko'p murakkab faoliyatlarni amalga oshira olmasligi aniq ma'lumot. Shunday bo'lsa ham ushbu yosh davr mobaynida bolalar biologik jihatdan o'sadi va rivojlanadi.

Ilk bolalik davrida yetakchi faoliyat tipi "Predmetli faoliyat" dir. Predmetli faoliyat o'z nomi bilan narsa va buyumlar, turli xil hodisalar, va atrof muhit to'g'risidagi dastlabki ma'lumotalarga ega bo'lish bilan bog'liq. Bolalar predmetlarning nomini va u nima maqsad uchun ishlatilishini bilishar ekan, ularda turmush tajribalari paydo bo'ladi va rivojlanadi.

Maktabgacha yosh davrida esa bizning asosiy mavzuyimiz hisoblangan "O'yin faoliyati" yetakchi faoliyat tipi hisoblanadi. O'yin faoliyati nafaqat bolalarning sevimli faoliyati, balki ularning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi omil sanaladi. Bolalar o'yin orqali atrof-olam haqida ma'lumotga ega bo'lishlari, jismoniy faoliyatlarini rivojlantirishlari, aqliy salohiyatlarini oshirishlari mumkin.

Maktabgacha yosh davri ham o'z o'rnida ma'lum guruhlariga bo'linadi. O'yin turlari ham guruhlariga qarab o'zgarib boraveradi. Masalan, kichik guruhdagi bolalar o'yinlarni o'zlarining fantaziyalari asosida shakllantiradi. O'rta guruh bolalarda didakdik o'yinlar asosiy ro'l o'ynaydi. Qoidali o'yinlar bolalarni zeriktirmaydi va charchatmaydi. Katta yosh guruhlarida esa aqliy o'yinlar asosiy o'yin turi hisoblanadi. Chunki katta guruh bolalari va tayyorlov guruh bolalari ma'lum bir vaqtdan keyin boshlang'ich o'quv faoliyati hisoblangan maktabga o'qishni boshlashadi.

Ijodiy syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xususiyatlari ham shakllanadi. O'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas aksincha bolalar xayolining o'zi o'yin davomida yuzaga kelib rivojlantiradigan psixik jarayondir.

Bog'cha yoshidagi bolalar o'z vaqtining ko'p qismini o'yin bilan o'tkazadi, ayniqsa 3 yoshdan 6-7 yoshgacha bolalarda o'yinlar ahamiyatli taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi. Predmetli-boshqaruv va ramziy o'yinlardan to qoidali syujetli rolli o'yingacha bolalarni qamrab oladi va ularni har tomonlama kamolatga yetishishiga va rivojlanishiga yordam beradi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar hali qoidaga muvofiq yolg'iz o'ynaydilar. O'zlarining predmetli va konstruktorli o'yinlarida idrok, xotira, tasavvur, tafakkur va qobiliyatlarini takomillashtirib boradilar. Ushbu yoshdagi bolalar syujetli rolli o'yinlari odatda kundalik hayotlarida kuzatadigan kattalarning harakatlarini qayta namoyon etadilar.

O'rta va katta maktabgacha yosh davrida syujetli-rolli o'yinlar rivojlanadi, biroq kichik maktabgacha yosh davrida o'yinlarga kiritiladigan va amalga oshiriladigan mavzular; rollari, o'yin harakatlarining qoidalari bilan, turli tumanligi bilan farqlanadi. Tabiiy xarakter ko'pgina predmetli shartlilariga almashtiriladi va ramzli o'yin boshlanadi. Masalan: kubik o'yindan va unga ajratilgan roldan qat'iy nazar ramziy manoda mebellar va mashinalarni, odamlar va hayvonlarni namoyish etadi. Bola kattalar va hayvonlarga taqlid qilar ekan, uning turmush tajribasi ortib boradi.

Katta guruh bolalarida maktabgacha yosh davrida konstruktorlik o'yini mehnat faoliyatiga aylanadi, o'yin jarayonida bola turmushda zarur bo'lgan nimadir yasaydi, yaratadi, quradi. Bolalar bunday o'yinlarda oddiy mehnat ko'nikma va malakalarini egallaydilar, ularda amaliy tafakkur faol rivojlanadi.

Bola o'ynida ko'plab uy-ro'zg'or asboblari va predmetlaridan foydalanishni o'rganadi. Unda o'z xatti-harakatlarini rejalashtirish qobiliyati paydo bo'ladi va rivojlanadi, ko'p harakatlari va aqliy operatsiyalari tasavvur va xayoli takomillashadi.

O'yin bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasidir. O'yin orqali bolalar kattalarining mehnat tajribasini; bilim, ko'nikma, malaka, harakat usullarini, axloq normalari va qoidalarini, mulohaza va muhokamalarini egallab boradilar. O'yinda bolalarni o'z tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabat usullari shakllanadi, hislari va didlari tarbiyalanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati sifatida muhim o'rin tutadigan o'yin faoliyati masalalari asrlar davomida juda ko'plab olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hammo tomonlarini aks ettirishga urunadilar. Bolalarda o'yin faoliyatining turlari ko'payib borar ekan ularning rivojlanishlariga ko'plab imkoniyatlar yaratiladi. Bolalarning har tomonlama yetuk shaxs bo'lib yetishlariga o'yin faoliyati yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova.F, Toshpo'latova.Sh, Kayumova.N, Azimova.M “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur” nashriyoti. Toshkent-2019-yil.
2. <https://in-academy.uz> Innovative Academy RSC “O‘yin bog‘cha yoshidagi bolalarda yetakchi faoliyat sifatida”
3. <https://api.scienceweb.uz> Scienceweb “O‘yin bola tarbiyasining muhim vositasi”